

Dekabr, 2024-Yil

OILALARNING AJRALISH SABABLARI VA AJRALISHNING FARZANDLARGA

TA'SIRI

Abdullayeva Maxliyo Damin qizi

O'zbekiston Milliy universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti Sotsiologiya yo'nalishi 1-kurs talabasi.

Xusanova Xayriniso Tayirovna

Ilmiy rahbar: "Sotsiologiya" kafedrası dotsenti, sotsiologiya doktori(PhD).

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14477505>

Annotatsiya. Hozirgi kunda nikoh qurilishi bilan ajralishlar soni tenglashib bormoqda. Oilaviy ajrimlar nafaqat jamiyatga balki farzandlarning kelajagiga ham o'zining salbiy tasirini ko'rsatmay qolmaydi. Nikoh buzilishiga turli xil omillar sabab bo'lmoqda. Oilalarning buzilishi nafaqat bizda balki boshqa davlatlarda ham dolzarb masala hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Oila, ajrimlar, nikoh, oilaviy ziddiyatlar, nikohning buzilishi, xiyonat, zo'ravonlik, moliyaviy muammolar, egoizm.

ПРИЧИНЫ РАЗВОДА И ВЛИЯНИЕ РАЗВОДА НА ДЕТЕЙ

Аннотация. В настоящее время увеличивается количество браком и разводов. Семейные споры влияют не только на общество но и на будущее детей. Развод в браке вызван различными факторами. Распад семьи актуальная проблема не только в нашей стране но и в других странах.

Ключевые слова: Семья, разделения, свадьба, семейные конфликт, распад брака, предательство, насилие, финансовые проблемы, эгоизм.

REASONS FOR FAMILY DEVORCE AND EFFECTS OF DIVORCE ON CHILDREN

Abstract. Nowadays, the number of divorces is equal to the construction of marriage.

Family divorces have a negative impact not only on society, but also on the future of children. Divorce of marriage is caused by various factor. Family breakdown is an urgent issue not only in our country but also in other countries.

Keywords: Family, separation, marriage, family conflicts, disruption of marriage, betrayal, violence, financial problems, selfishness.

Nikohni bekor qilishayotgan oilalar soni dunyo bo'yicha nikohdan o'tayotgan oilalar soni bilan taqqoslaganda, yildan yilga tenglashmoqda. Nikohning bekor qilinishiga sabablar juda ko'p, bularning ichida eng asosiylarini keltirib o'tamiz bular, oiladagi er va xotinning bir birini tushunmasligi, oilaning moliyaviy jihatdan mustaqil bo'lmasligi, oiladagi rashk, ayol yoki

Dekabr, 2024-Yil

erkakning xiyonati va befarzandlikni ko'rsatishimiz mumkin. Oilalarning buzilishi nafaqat jamiyatga balki shu oiladagi farzandlarning kelajagiga ham o'zining salbiy tasirini o'tkazmasdan qolmaydi.

“Oila” ilmiy amaliy tadqiqot markazi direktor o‘rinbosari Dilbar Alimjonovanning ta’kidlashicha, hisobot davrida 18ming 506 nafar ajrashish arafasida turganlarning ajrim holatlari o‘rganildi. Oilalarning darz ketishiga eng ko‘p sabab bo‘layotgan omillar sifatida esa quyidagilar aniqlandi:

- 1.Er-xotinning o‘zaro kelishmovchiligi (50%).
- 2.Oilada qaynona va qaynota, uchinchi shaxs aralashuvi (17%).
- 3.Befarzandlik (8%).
- 4.Xiyonat (6%).
- 5.Ichkilikbozlik va boshqa zararli odatlar oqibatida (6%).
- 6.Moddiy taminot masalasi (4%).
- 7.Ichki va tashqi migratsiya (4%).
- 8.O‘zi va farzandlari kasalligi tufayli (1%).
- 9.Uy-joy masalasi (1%).
- 10.Boshqa sabablar (3%)[1].

Ko‘pchilik oilalardan ajralish sabablarini so‘ralganda asosan uchinchi shaxsning aralashuvi, bir biriga mos kelmaganligi, moliyaviy tomondan qiyinchiliklar, kabi muammolarni ko‘rsatishadi.

Yevropa xalqlari oilalari uchun esa ajralish sabablari sifatida aksariyat hollarda, ichkilikbozlikka berilish, xiyonat, xarakterlarni mos kelmasligi kabilar qayd etiladi.

Hozirgi kunda ajralish muammosi nafaqat bizda balki boshqa davlatlarda ham dolzarb muammo hisoblanadi. Masalan Islom davlatlarini olib qaraydigan bo‘lsak.

So‘nggi yillarda Arab dunyosida ham ajralishlar soni keskin oshgan. Shunday davlatlar boki musulmonlar orasida ajralishlar shunchalik keng tarqalganki har ikkinchi nikoh buziladi.

Tadqiqot Misr vazirlar Mahkamasi huzuridagi Axborot va qarorlarni qo‘llab quvvatlash markazi tomonidan o‘tkazildi. Unga ko‘ra, Quvayt ajralishlar soni bo‘yicha yetakchiga aylandi, har ikkinchi er xotin u yerda ajralishdi. Ikkinchi o‘rinda nikohning 40%i ajraladigan Misr turadi.

Iordaniya va Qatarda ham xuddi shunday, uchinchi va to‘rtinchi o‘rinlarda 34% bilan Livan va Birlashgan Arab Amirliklari joylashgan[2].

Shuni aytib o‘tish joizki oilalarning ajralishi farzandlarning kelajagiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ota onasi ajralib ketgan minglab bolalar orasida so‘rovnoma o‘tkazgan bir kitobning

Dekabr, 2024-Yil

mualliflari shunday deb yozishdi, “Bitta narsa aniq bolalar baxtliroq bo‘ldik deb aytishmadi. Aksincha, ular ota onam ajrashgan kuni bolaligim tugadi.”-deb ochiq aytishdi.

Kitobda yozilishicha, bunday bolalar uchun dunyo xavf-xatarga to‘la bir joydek tuyiladi.

Chunki ularning eng yaqin odamlari o‘z munosabatlarini saqlay olishmadi.

Ajrashganlarning bolalari quyidagi muammolarga duch kelishi mumkin:

- g‘azablanadi, asabiylashadi va tushkunlikka tushadi
- o‘zgalar bilan til topisha olmaydi
- maktabda yomon o‘qiydi yoki umuman o‘qishni tashlab qo‘yadi
- kasalliklarga ko‘p chalinadi.

Xulosa qilib aytganda bazilarning fikriga ko‘ra ajrashgani farzandlarga foyda deyishi mumkin, lekin farzandlar bunday deb o‘ylamaydi, o‘zlarini ayibdor his qilishadi, o‘zini keraksiz deb o‘ylaydi. Farzandlar ota-onasi bilan baxtli bo‘lishadi. Oilalarning ajralishi bu murakkab jarayon bo‘lib uning sabablari har xil bo‘lishi mumkin. Nima bo‘lganda ham oilani saqlab qolishga harakat qilish kerak. Ajrashgan taqdirda ham farzandlarni moliyaviy jihatdan taminlab qo‘yish kerak.

REFERENCES

1. "Oila" markazi tadqiqotlarida oilaviy ajrimlar sabablari. <https://kun.uz>.
2. Arab mamlakatlarida ajralishlar. <https://aussiedlerbote.de:2022/07>.
3. Ajralish farzandlarga qanday tasir qiladi. <https://jw.org>.
4. NURQULOV B. YOSHLARNING IJTIMOY-SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISH OMILLARI //UzMU xabarlar. – 2024. – T. 1. – №. 1.3. 1. – C. 190-193.
5. Nurqulov B. G. THE MAIN THEORETICAL APPROACHES TO THE CONCEPT OF POLITICAL SOCIALIZATION //Academic research in educational sciences. – 2024. – №. 3. – C. 426-431.
6. Nurqulov B. G. SAYLOV VA UNING YOSHLAR FAOLIYATIDA TUTGAN O‘RNI //Academic research in educational sciences. – 2024. – №. 3. – C. 432-436.
7. Нуркулов Б., Равшанова О. JORJ GERBERT MIDNING RAMZIY INTERAKSIONIZM NAZARIYASI //NRJ. – 2024. – T. 1. – №. 3. – C. 402-405.
8. Nurqulov B. et al. PITRIM SOROKINNING “SOTSIAL VA MADANIY DINAMIKA” ASARI //NRJ. – 2024. – T. 1. – №. 3. – C. 289-291.
9. Panjiyeva Z. et al. RAZMIY INTERAKTSIONIZM TAMOYILLARI //NRJ. – 2024. – T. 1. – №. 3. – C. 292-295.

Dekabr, 2024-Yil

10. A'ZAMXONOV S. OLIY TA'LIM TIZIMIDA TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM OLISHLARNI TASHKIL ETISH //News of UzMU journal. – 2024. – T. 1. – №. 1.1. 1. – C. 63-66
11. Saidabzalkhan A. MODERN CONCEPTS OF HUMAN CAPITA MEASUREMENT <https://farspublishers.org/index.php/ijessh/article/view/1527> <https://zenodo.org/records/8003552#>. – 2023.
12. A'zamxonov S. X. Ta'lim jarayonida o 'qituvchi faoliyatining o 'ziga xos xususiyatlari //IJODKOR O'QITUVCHI. – 2022. – T. 2. – №. 22. – C. 381-386.
13. Аъзамхонов С. TALABALAR MUSTAQIL TA'LIM OLISHINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI //ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ. – 2024. – №. SI-1.
14. Azamkhanov S. SOCIOLOGICAL ANALYSIS OF MODERN FORMS OF ORGANIZING STUDENTS'INDEPENDENT WORK //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 5.
15. Ilxomov, Umrbek, and Parizod Nasirdinova. "IRVING GOFFMANNING DRAMATURGIYASI." NRJ 1.3 (2024): 239-245.
16. ILXOMOV, Umrbek. "SOTSIAL MOBILLIK YOSHLAR INTELLEKTUAL SALOHIYATNING OMILI SIFATIDA." News of UzMU journal 1.1.2. 1 (2024): 110-114.
17. Ilxomov, U. U., and P. Sh Nasirdinova. "UMUMIY-O 'RTA TA 'LIM MUASSASALARIDA O 'QITISH METODI VA BITIRUVCHI YOSHLARNI KASBGA YO 'NALTIRILGANLIGI DOLZARB MASALA." Academic research in educational sciences 3 (2024): 252-256.
18. Ilxomov U. U. YOSHLARDA DEVIANT XULQ-ATVOR MUAMMOLARINING INDEKATORI //Academic research in educational sciences. – 2024. – №. 3. – C. 263-268.
19. Ilxomov U. U. YOSHLAR ISHSIZLIGI IJTIMOIIY MUAMMO SIFATIDA //Academic research in educational sciences. – 2024. – №. 3. – C. 257-262